

KORXONALARNING INVESTITSION FAOLIYATIGA TA'SIR ETUVÇI IQTISODIY OMILLAR VA ULARNI OPTIMALLAŞTIRIŞ YÖLLARI

ECONOMIC FACTORS AFFECTING THE INVESTMENT ACTIVITIES OF ENTERPRISES AND WAYS TO OPTIMIZE THEM

[1]Alijonov Jamşid Alijon öğli, [2]A'zamov Nuriddin Xaitvoy öğli

[1]TKTI, "Sanoat iqtisodiyoti" kafedrasi assistenti.
ORCID: *0009-0009-4651-2064,* ***G-mail:*** *alijonovjamşid69@gmail.com,*
[2]TKTI, "Iqtisodiyot" yönalişi talabasi. ***ORCID:*** *0009-0007-0897-0836,*
G-mail: *nazamov441@gmail.com*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Uşbu maqolada zamonaviy iqtisodiy şaroitda korxonalarning investitsion faoliyatini samarali taşkil etiş va uning hajmini oşirişga ta'sir etuvçi makroiqtisodiy hamda mikroiqtisodiy omillar tizimli tahlil qilingan. Korxona investitsiyalarining dinamik ösişini ta'minlaşda foiz stavkalari, inflyatsiya darajasi, soliq yuklamasi kabi taşqi omillar bilan birga, korxonaning içki moliyaviy barqarorligi va rentabelligi örtasidagi boğliqlik modellaştiriş yordamida asoslab berilgan.

Eng. - This research paper provides a systematic analysis of the macroeconomic and microeconomic factors that influence the effective organization and expansion of investment activities within enterprises under contemporary economic conditions. Through the use of modeling, the study establishes the relationşip between external factors—such as interest rates, inflation levels, and the tax burden—and an enterprise's internal financial stability and profitability, demonstrating how these elements contribute to ensuring the dynamic growth of corporate investments.

Kalit sözlar: Keywords:

❖ *korxona, investitsion faoliyat, iqtisodiy omillar, makroiqtisodiy barqarorlik, ekonometrik model, çiziqli regressiya, rentabellik, jadallaştirilgan amortizatsiya, risklarni diversifikatsiya qiliş, investitsion jozibadorlik.*

❖ *enterprise, investment activity, economic factors, macroeconomic stability, econometric model, linear regression, profitability, accelerated depreciation, risk diversification, investment attractiveness.*

Kiriş.

Jahon iqtisodiyotining globallaşuvi va bozor munosabatlarining çuqurlaşuvi şaroitida iqtisodiyotning real sektori subyektlari bölmiş korxonalarning barqaror ösişini ta'minlaş bevosita ularning investitsion faoliyati faolligiga boğliqdir. Investitsiyalar har qanday işlab çiqariş tizimining lokomotivi hisoblanib, u korxonalarni modernizatsiya qiliş, yangi texnologiyalarni joriy etiş, işlab çiqariş hajmini kengaytiriş va raqobatbardoş mahsulotlar yetkazib beriş imkonini yaratadi. Hozirgi kunda korxonalarning investitsion faolligini oşiriş, unga salbiy va ijobiy ta'sir körsatuvçi iqtisodiy omillarni çuqur tahlil qiliş hamda uşbu jarayonlarni optimallaştiriş yöllarini izlaş dolzarb ilmiy muammolardan biri bölib qolmoqda.

Uşbu maqolaning maqsadi korxonalarning investitsion faoliyatiga ta'sir etuvçi taşqi (makroiqtisodiy) va içki (mikroiqtisodiy) omillar tizimini nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etiş, ularning boğliqlik qonuniyatlarini ekonometrik modellar yordamida baholaş va uşbu faoliyatni optimallaştiriş böyiça ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar işlab çiqişdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlar şarhi.

Investitsiya omillari nazariyasi bir neça bosqiçda rivojlangan. J. Keyns investitsiyani kapitalning marjinal samaradorligi va foiz stavkasi örtasidagi nisbat bilan boğladi [1].

D. Jorgenson neoklassik yondaşuvda kapitalning «foydalaniş qiymati» tuşunçasini kiritib, investitsiya hajmi kapital qiymatiga, ya'ni foiz stavkasi, eskiriş va soliq tizimiga boğliqligini asoslagan [2].

R. Xoll va D. Jorgenson esa soliq siyosatining, jumladan amortizatsiya imtiyozlarining investitsiyaga ta'sirini modellaştirgan [3].

J. Tobinning «q» nazariyasi investitsiyalarni kapitalning bozor qiymati va uni almaştiriş qiymati nisbati orqali tuşuntiradi [4].

Xujamkulov D.Yu., Ismailov D.A. Investitsiya loyihalarini boşqariş öquv qöllanmasida investitsiya, investitsiya loyihalarini boşqariş, investitsiya loyihalarining iqtisodiy tuşunçasi va ularning turkumlanişi; real va moliyaviy investitsiyalar, ularning xususiyatli belgilari; real sektor va uning tarkibiy qismlari; investitsion siyosat; investitsion loyiha; loyiha daromadliligi va uni hisoblaş usullari; innovatsiya hamda intellektual investitsiyalar kabi muhim iqtisodiy tuşunçalarni yoritişga qaratilgan nazariy va amaliy bilimlar bayon etilgan [5].

J.R. Zaynalov, S.S. Aliyeva va N.X. Ruzibayeva "Investitsiya" darsligida investitsiyalarni jalb etiş va yangi işlab çiqariş quvvatlarini işga tuşirişning iqtisodiy ahamiyatini yoritgan [6].

A.A. Xaşimov, Ş.A. Madjidov, N.M. Muminova investitsiyalarni jalb etişda, avvalo, içki manbalarni safarbar etiş hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qiliş,texnik va texnologik qayta jihozlaş, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantiriş va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etiş hal qiluvçi ustuvor yönalişga aylandi [7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy işni bajariş jarayonida tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik taqqoslaş, guruhlaş, trendli modellaştiriş va eng kiçik kvadratlar usuliga asoslangan ekonometrik regressiya tahlili kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan keng foydalanildi [8].

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsion faoliyat tuşunçasi bozor iqtisodiyotining eng muhim kategoriyalaridan biri bölib, korxonalarning uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanişi, raqobatbardoşligini oşirişi hamda bozor mavqeyini mustahkamlaşining asosi hisoblanadi. Keng ma'noda, investitsiyalar (lotinçadan "investire" – kiyintirmoq, mablağ safarbar etmoq) – bu tadbirkorlik va boşqa faoliyat obyektlariga daromad (foyda) oliş yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erişiş maqsadida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bölgan huquqlardir [9].

Korxonaning investitsion faoliyati esa, investitsiyalarni rejalaştiriş, şakllantiriş, joylaştiriş va ulardan samarali foydalaniş böyiça amalga oşiriladigan yalpi amaliy harakatlar yiğindisidir [10]. Iqtisodiy adabiyotlarda korxonalarning investitsion faoliyati yönalişlariga köra quyidagi asosiy turlarga bölinadi:

Real investitsiyalar (kapital qöyilmalar): Korxonaning asosiy vositalarini va işlab çiqariş quvvatlarini kengaytiriş, rekonstruksiya qiliş, yangi bino va inşootlar quriş, maşina va uskunalar sotib oliş jarayonlarini öz içiga oladi. Real investitsiyalar korxonaning işlab çiqariş

salohiyatini bevosita oşiradi va moddiy-texnik bazasini yangilaydi.

Moliyaviy investitsiyalar: Korxonaning böş pul mablağlarini daromad keltiruvçi moliyaviy vositalarga, ya'ni qimmatli qoğozlarga (aksiyalar, obligatsiyalar), korxonalarning ustav fondidagi uluşlariga yoki bank depozitlariga uzoq va qisqa muddatga joylaştirişidir. Moliyaviy investitsiyalar portfel investitsiyalarini şakllantiriş orqali korxonaga qöşimça dividendlar yoki foizlar körinişida daromad keltiradi [11].

Nomoddiy (intellektual) investitsiyalar: Korxonaning kelajakdagi innovatsion ustunligini ta'minlaş maqsadida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik işlariga (ITTI), litsenziyalar, patentlar, tovar belgilari, nou-xau va inson kapitalini rivojlantirişga (xodimlarni öqitiş va malakasini oşiriş) yönaltirilgan mablağlaridir.

Korxona darajasida investitsion faoliyat jarayoni bir neça bosqiçlardan iborat bölgan murakkab siklni taşkil etadi. Birinçi bosqiçda investitsiya ehtiyojlari aniqlanadi va strategik maqsadlar belgilanadi. Ikkinçi bosqiçda investitsiya loyihalari işlab çiqilib, ularning samaradorligi (NPV, IRR, Payback Period kabi körsatkiçlar yordamida) baholanadi. Uçinçi bosqiçda moliyalaştiriş manbalari (içki va taşqi resurslar) şakllantiriladi va loyiha amalga oşiriladi. Yakuniy bosqiçda esa kiritilgan investitsiyalarning qaytişi va erişilgan iqtisodiy samaradorlik doimiy ravişda monitoring qilib boriladi [12].

Tadqiqotda statistik tahlil, qiyosiy va tarkibiy tahlil, tizimli yondaşuv hamda investitsion loyihalarni baholaş usullari (sof joriy qiymat – NPV, içki daromad me'yori – IRR, rentabellik indeksi – PI) qöllanildi. Ma'lumotlar manbai sifatida Milliy statistika qömitasining 2021–2026-yillardagi investitsiyalar böyiça ma'lumotlari, Markaziy bankning foiz stavkalari va inflyatsiya haqidagi ma'lumotlari hamda amaldagi soliq qonunçiligi olingan. Soliq, foiz stavkasi va amortizatsiya omillarining loyiha qiymatiga ta'siri nazariy jihatdan kapitalning foydalaniş qiymati formulasi orqali ifodalanadi:

$$c = q \cdot (r + \delta) \cdot (1 - \tau \cdot z) / (1 - \tau), \quad (1)$$

bu yerda c – kapitalning foydalaniş qiymati; q – investitsiya tovarining narxi; r – kapital qiymati (foiz stavkasi); δ – eskiriş me'yori; τ – foyda soliği stavkasi; z – amortizatsiya ajratmalarining joriy qiymati. Formuladan körinadiki, foiz stavkasining pasayişi, soliq stavkasining kamayişi yoki amortizatsiyaning tezlaştirilişi (z ortişi) kapital qiymatini pasaytiradi va investitsiyani rağbatlantiradi. Amaliy baholaş uçun maqolada şartli loyiha misolida sezgirlik tahlili ötkazildi.

Korxonalarning investitsion faoliyatiga ta'sir etuvçi omillarni içki va taşqi guruhlarga ajratiş mumkin. Içki omillar korxonaning moliyaviy holati va boşqaruv sifatiga boğliq bölsa, taşqi omillar makroiqtisodiy, fiskal, moliyaviy va institutsional muhitni aks ettiradi. Omillarning ta'sir mexanizmi va 2025–2026-yillardagi holati 1-jadvalda umumlaştirilgan [13].


1-jadval

Investitsion faoliyatga ta'sir etuvçi iqtisodiy omillar tizimi


Omillar guruhi	Asosiy omillar	Ta'sir mexanizmi	Özbekistondagi holat (2025–2026)
Içki omillar	*Foyda va öz mablağlari; rentabellik; kapital tuzilmasi; texnologik daraja; boşqaruv sifati*	*Içki pul oqimlari investitsiyani moliyalaştirişning eng arzon manbai; rentabellik kutilayotgan daromadni belgilaydi*	*Öz mablağlari uluşi 15,3 % (2025) va 11,6 % (2026, 9 oy)*

Makroiqtisodiy omillar	Inflyatsiya; foiz stavkasi; valyuta kursi; iqtisodiy ösiş; talab	Foiz stavkasi kapital qiymatini, inflyatsiya esa noaniqlikni belgilaydi; talab daromadni kengaytiradi	Asosiy stavka 14 %; inflyatsiya 7,3 % (2025), 6,4 % (2026-yil iyun); YaIM ösişi 7,7 % (2025)
Fiskal omillar	Foyda soliği; QQS; amortizatsiya tartibi; imtiyozlar	Soliq yuki sof daromadni, amortizatsiya esa pul oqimlari vaqtini özgartiradi	Foyda soliği 15 %, QQS 12 %; yuqori texnologik mahsulotga foyda soliği 0 %
Moliyaviy bozor omillari	Bank krediti; kapital bozori; lizing; xorijiy moliyalaştiriş	Moliyalaştiriş manbalarining mavjudligi va narxi loyihalar sonini belgilaydi	Bank kreditlari uluşi 1,9 % (2025); xorijiy manbalar 65,9 %
Institutsional omillar	Huquqiy muhit; infratuzilma; davlat xizmatlari sifati; şartnomalar himoyasi	Tranzaksiya xarajatlari va riskni kamaytiradi	Investitsiya qonunçiligi va 2030-yilgaça strategiya mavjud

2021–2025-yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 236,6 trln sömdan 591,1 trln sömga oşib, qariyb 2,5 baravar köpaydi; örtaça yillik nominal ösiş sur'ati taxminan 25,7 foizni taşkil etdi. Eng yuqori nominal ösiş 2024-yilda (+42,5 %) kuzatilgan bölsa, 2025-yilda bu körsatkiç 16,5 foizni taşkil etdi (taqqoslama narxlarda ösiş 10,5 %). 2026-yil yanvar–sentyabr oylarida investitsiyalar hajmi 584,2 trln söm bölib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 20,1 foizga ösgan. 2025-yilning töliq yillik hajmi bilan toğridan-toğri taqqoslaş davrlar turliçe ekanligi sababli ösiş sur'atini ifodalamaydi [14, 15].



1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi, trln söm



2-rasm. Nominal investitsiyalar hajmining ösiş sur'ati, % (2026-yil – mos davrga nisbatan)


Moliyalaştiriş manbalari tarkibi 2-jadval va 3-rasmda keltirilgan. Quyidagi xulosalarni ajratib körsatiş mumkin.

2-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalaştiriş manbalari

Manba	2025-yil, trln söm	Uluşi, %	2026-yil yanvar–sentabr, trln söm	Uluşi, %
Xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	389,6	65,9	371,7	63,6
Korxona mablağlari	90,3	15,3	67,8	11,6
Aholi mablağlari	37,5	6,3	71,6	12,3
Respublika kafolatidagi xorijiy kreditlar	32,5	5,5	36,3	6,2
Respublika byudjeti	28,0	4,7	25,4	4,3
Tijorat banklari kreditlari va boşqa qarz mablağlari	11,1	1,9	7,4	1,3
Tiklaniş va taraqqiyot jamğarmasi	2,1	0,4	3,9	0,7
Jami	591,1	100,0	584,2	100,0

2025-yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning 65,9 foizi xorijiy investitsiyalar va hukumat kafolatisiz xorijiy kreditlar hissasiga toğri kelgan. Xorijiy manbalar texnologiya hamda kapital oqimini rağbatlantirişi mumkin, biroq valyuta kursi va taşqi moliyalaştiriş şaroitlariga boğliqlikni kuçaytiradi. Ayniqsa, xorijiy valyutadagi kreditlar korxonalarning valyuta riskini oşiradi [14].



3-rasm. Moliyalaştiriş manbalari tarkibi, foizda

Korxonalarning öz mablağlari hisobidan investitsiyalar 2025-yilda nominal ifodada 0,8 foizga ösgan (100,8 %). Inflyatsiya 7,3 foiz bölganini hisobga olsak, iste'mol narxlari indeksi bilan tuzatilganda bu körsatkiç taxminan 6,1 foizga kamaygan (100,8/107,3 – 1 ≈ –6,1 %). Bu taxminiy baho bölib, investitsiya tovarlari deflyatori emas, iste'mol narxlari indeksidan foydalanilgan. 2026-yilning töqqiz

oyida öz mablağlari uluşi 11,6 foizni taşkil etgan [14, 15].

Tijorat banklari kreditlari va boşqa qarz mablağlarining uluşi 2025-yilda 1,9 foiz, 2026-yilning töqqiz oyida esa 1,3 foizni taşkil etgan. Bu holat uzoq muddatli investitsion kreditlaş imkoniyatlari çeklanganligi bilan boğliq bölişi mumkin, biroq faraz alohida empirik tekşiruvni talab qiladi. Aholi mablağlari uluşi 6,3 foizdan 12,3 foizgaça ösgan; uning tarkibini alohida örganiş lozim [14, 15].

Korxona odatda çeklangan investitsion byudjetga (öz mablağlari va jalb qilingan manbalar yiğindisi B) ega böladi. Bunda optimallaştiriş masalasi quyidagiça qöyiladi:

$$max\ \Sigma\ NPV_i \cdot x_i,\ \ \Sigma\ I_i \cdot x_i \le B,\ \ x_i \in \{0; 1\},\ (2)$$

bu yerda $x_i = 1$ bölsa, i-loyiha tanlanadi; I_i – loyiha xarajati; NPV_i – uning sof joriy qiymati. Loyihalarni baholaşda rentabellik indeksidan ham foydalaniladi: PI = (NPV + I) / I. Indeks diskontlangan tuşumlarning boşlanğiç investitsiyaga nisbatini bildiradi.

Korxonalarning investitsion faoliyati alohida ajratilgan muhitda emas, balki mamlakatdagi umumiy makroiqtisodiy vaziyat bilan uzviy bog'liqlikda keçadi. Taşqi yoki makroiqtisodiy omillar töğridan-töğri korxonaning nazoratida bölmaydi, biroq ularning investitsion qarorlariga va kutilayotgan daromadlilik darajasiga hal qiluvçi ta'sir körsatadi. Uşbu omillarning eng asosiylari quyidagilardir:

Inflyatsiya darajasi - Yuqori inflyatsiya şaroitida kelajakdagi pul oqimlarining qadrsizlanişi röy beradi, bu esa uzoq muddatli investitsiya loyihalarining real daromadligini pasaytiradi.

Markaziy bankning asosiy stavkasi – bu omil korxonalarning taşqi moliyalaştiriş manbalaridan, xususan, bank kreditlaridan foydaliniş xarajatlariga ta'sir körsatadi.

Soliq yuklamasi va soliq siyosati - Davlat tomonidan örnatilgan yuridik şaxslarning foyda soliği, mol-mulk soliği va qöşilgan qiymat soliği (QQS) stavkalari korxonaning öz ixtiyorida qoladigan sof foyda miqdorini belgilaydi. Soliq yukining yuqoriligi içki investitsiya manbalarini çeklaydi.

Valyuta kursining barqarorligi - Zamonaviy korxonalar öz işlab çiqariş quvvatlarini modernizatsiya qiliş uçun asosan xorijdan texnologiya va uskunalar import qiladilar. Milliy valyuta kursining keskin devalvatsiyasi import qilinadigan uskuna va xomaşyo narxining qimmatlaşişiga olib keladi va bu loyiha xarajatlarini oşiradi. Xorijiy valyutada kredit olgan korxonalar uçun esa valyuta riski yanada yuqori böladi.

Makroiqtisodiy muhit barça korxonalar uçun teng şaroit yaratgan taqdirda ham, har bir korxonaning investitsion faolligi uning içki moliyaviy-xöjalik holatiga köra turliça böladi. Içki yoki mikroiqtisodiy omillar korxonaning bevosita boşqaruv qarorlari va operatsion samaradorligi natijasida şakllanadi.

Korxonaning sof foydasi va rentabellik darajasi - Sof foyda korxonaning eng arzon va mustaqil investitsiya manbai hisoblanadi. Korxona işlab çiqariş faoliyatidan qançalik yuqori foyda körsa va rentabellik (Return on Assets - ROA, Return on Equity - ROE) yuqori bölsa, uning içki investitsiya salohiyati şunçalik keng böladi. Yuqori rentabelli korxonalar taşqi investorlar va banklar uçun ham jozibador hisoblanadilar.

Likvidlilik va moliyaviy barqarorlik – korxonaning öz majburiyatlarini öz vaqtida bajara oliş qobiliyati (likvidliligi) va xususiy kapitalining jami kapitalga nisbati (moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti) uning investitsiya salohiyatini tavsiflaydi.

Amortizatsiya ajratmalarining hajmi va fond qaytimi – amortizatsiya asosiy vositalar qiymatini ularning foydali xizmat muddati davomida xarajatlarga bosqiçma-bosqiç ötkazib boriş jarayonidir. Amortizatsiya bilan boğliq pul resurslari asosiy vositalarni yangilaş va modernizatsiya qilişni moliyalaştirişda qöllanilişi mumkin.

Işlab çiqariş quvvatlaridan foydaliniş darajasi – mavjud maşina va uskunalarning

yetarli darajada işlatilmayotgani yangi quvvatga investitsiya kiritiş qarorini qayta baholaş zaruratini tuğdiradi. Bunda modernizatsiya, energiya samaradorligi va mahsulot sifatini yaxşilaş kabi omillar ham hisobga olinadi.

Korxonalarning investitsion faoliyatiga ta'sir etuvçi omillarning özaro boğliqlik darajasini aniqlaş va kelajakdagi tendensiyalarni prognoz qiliş uçun ekonometrik modellaştiriş usulidan foydalaniladi. Biz tadqiqot doirasida korxonaning jami investitsiya hajmining (Y, mln. söm) uning ikki asosiy iqtisodiy omili: sof foydasi (X_1, mln. söm) va jalb qilingan bank kreditlari hajmiga (X_2, mln. söm) boğliqligini köp omilli çiziqli regressiya modeli orqali körib çiqamiz.

Modelning umumiy körinişi quyidagi çiziqli regressiya tenglamasi orqali ifodalanadi:

$$Y = a + b_1 \cdot X_1 + b_2 \cdot X_2 + e \quad (3)$$

Bu yerda:

Y – natijaviy belgi (jami investitsiya hajmi);

X_1, X_2 – ta'sir etuvçi omillar (sof foyda va kreditlar);

a – ozod had (omillardan taşqari bazaviy omillar, masalan, amortizatsiya hisobiga kiritiladigan minimal investitsiya);

b_1, b_2 – regressiya koeffitsiyentlari;

e – tasodifiy xatolik (modelda hisobga olinmagan boşqa omillar ta'siri).

Kuzatuv ma'lumotlari va EKKU böyiça hisob-kitob jadvallari keltirilmagani sababli quyidagi regressiya tenglamasi tasdiqlangan empirik natija emas, balki şartli hisoblaş misoli sifatida qaraladi:

$$Y = 120,5 + 0,65 \cdot X_1 + 0,42 \cdot X_2 \ (4)$$

Tenglamaning iqtisodiy şarhi:

Ozod had (β_0 = 120,5): sof foyda (X_1) va jalb etilgan kreditlar (X_2) nolga teng bölganda model 120,5 mln. sömlik investitsiya hajmini nazarda tutadi. Bu sonni amortizatsiya bilan izohlaş uçun alohida ma'lumot talab etiladi.

Sof foyda koeffitsiyenti (β_1 = 0,65): boşqa omillar özgarmas şaroitda sof foydaning 1 mln. sömga köpayişi investitsiya hajmining 0,65 mln. sömga ösişi bilan boğliq deb talqin qilinadi; bu 65 foizlik ösiş degani emas.

Kredit koeffitsiyenti (β_2 = 0,42): boşqa omillar özgarmas şaroitda kreditlar hajmining 1 mln. sömga köpayişi investitsiya hajmining 0,42 mln. sömga ösişi bilan boğliq deb talqin qilinadi. Bu koeffitsiyentlar özi bilan sabab-oqibat boğliqligini isbotlamaydi.

Modelda R^2 = 0,84 deb keltirilgan; şartli misolda bu omillar investitsiya hajmi variatsiyasining 84 foizi bilan izohlanişini anglatadi. Biroq kuzatuvlar soni, tanlanma, standart xatolar, F-test va t-test natijalari taqdim etilmagani sababli modelning statistik işonçliligini tasdiqlaş imkoni yöq.

Ekonometrik model tahlili şuni körsatdiki, korxonaning öz içki resurslari (foyda va amortizatsiya) investitsiya ösişini ta'minlovçi eng barqaror manbalardir. Şu sababli, korxonalarning investitsion faoliyatini optimallaştiriş va rağbatlantiriş uçun quyidagi ilmiy-amaliy strategiyalarni qöllaş taklif etiladi:

Jadallaştirilgan amortizatsiya usullarini joriy etiş: An'anaviy çiziqli amortizatsiya usulida asosiy vositalarning qiymati butun xizmat muddati davomida teng taqsimlanadi. Yuqori texnologik va tez eskiruvçi uskuna şaroitida bu usul samarasiz. Jadallaştirilgan amortizatsiya usullari (masalan, kamayib boruvçi qoldiq usuli yoki yillar yiğindisi usuli) qöllanilganda, uskunalar qiymatining asosiy qismi (60-70 foizigaça) uning xizmat muddatining dastlabki yillarida mahsulot tannarxiga ötkaziladi.

Bu korxonaga quyidagi afzalliklarni beradi:

Dastlabki yillarda soliqqa tortiladigan foyda miqdori rasman kamayadi va foyda soliği böyiça qonuniy tejamkorlik yuzaga keladi.

Amortizatsiya jamğarmasida qisqa muddatda yirik miqdorda maqsadli pul mablağlari töplanadi va bu mablağlar darhol

keyingi modernizatsiya tölqiniga (investitsiyaga) yönaltiriladi.

Investitsion risklarni diversifikatsiya qiliş: Har qanday investitsion faoliyat noaniqlik va risklar bilan boğliq. Korxona darajasida risklarni optimallaştiriş uçun diversifikatsiyaning uç turini qöllaş maqsadga muvofiq:

Mahsulot diversifikatsiyasi: Investitsiyalarni faqat bitta mahsulot turini kengaytirişga emas, balki bir-birini töldiruvçi yoki mutlaqo yangi turdagi mahsulotlar (xizmatlar) işlab çiqarişga yönaltiriş. Bu bitta bozordagi inqiroz paytida umumiy investitsiya samaradorligini saqlab qoladi.

Bozor diversifikatsiyasi: Mahsulot sotiş bozorlarini kengaytiriş, ya'ni investitsiya loyihasi natijasini ham içki, ham taşqi (eksport) bozorlarga möljallaş.

Moliyaviy (portfel) diversifikatsiya: Korxonaning böş mablağlarining bir qismini real sektor loyihalariga, yana bir qismini esa yuqori likvidli va kam riskli moliyaviy aktivlarga (davlat obligatsiyalari, işonçli bank depozitlari) joylaştiriş.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot doirasida korxonalarning investitsion faoliyatiga ta'sir etuvçi iqtisodiy omillarni nazariy va amaliy jihatdan örganiş natijasida quyidagi asosiy xulosalar şakllantirildi:

Investitsion faoliyat korxonaning barqaror iqtisodiy ösişi va texnologik yangilanişining asosi bölib, u taşqi makroiqtisodiy barqarorlik va içki moliyaviy salohiyatning özaro sinergetik ta'sirida rivojlanadi.

Makroiqtisodiy omillar (inflyatsiya va qayta moliyalaş stavkasi) investitsiya kapitalining qiymatini belgilasa, içki omillar (sof foyda va amortizatsiya) investitsiyaning real moliyaviy manbasini şakllantiradi.

Keltirilgan şartli regressiya misolida sof foyda koeffitsiyenti 0,65 deb olingan: bu boşqa omillar özgarmaganda foydaning 1 mln. sömga ösişi investitsiyalar hajmining 0,65 mln. sömga ösişiga mos kelişini bildiradi. Empirik tasdiq uçun haqiqiy kuzatuv ma'lumotlari talab etiladi.

Ilmiy iş natijalaridan kelib çiqib, amaliyotdagi korxonalar uçun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- korxonalarda innovatsion va texnologik investitsiyalarni jadallaştiriş uçun asosiy vositalarga nisbatan jadallaştirilgan amortizatsiya usulini keng qöllaş va hosil bölgan mablağlarni qat'iy maqsadli jamğarmada saqlaş;

- investitsiya portfelini şakllantirişda risklarni diversifikatsiya qiliş prinsiplariga rioya etiş, loyihalarni faqat joriy talabga emas, balki uzoq muddatli strategik eksport salohiyatiga yönaltiriş;

- bank kreditlaridan foydalanişda jalb qilingan mablağlarning rentabellik darajasi kredit foiz stavkasidan yuqori bölişini (leverage samarasini) ta'minlaş va valyuta risklarini oldindan suğurtalaş (hedjirlaş) mexanizmlarini joriy etiş.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati:

1. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936. – 403 p.

2. Jorgenson D.W. Capital Theory and Investment Behavior // The American Economic Review. – 1963. – Vol. 53, No. 2. – P. 247–259.

3. Hall R.E., Jorgenson D.W. Tax Policy and Investment Behavior // The American Economic Review. – 1967. – Vol. 57, No. 3. – P. 391–414.

4. Tobin J. A General Equilibrium Approach to Monetary Theory // Journal of Money, Credit and Banking. – 1969. – Vol. 1, No. 1. – P. 15–29.

5. Xujamkulov D.Yu., İsmailov D.A. İnvestitsiya loyihalarini boşqariş: öquv qöllanma. – Toşkent: TDİU, 2019. – 302 b.

6. Zaynalov J.R., Aliyeva S.S., Ruzibayeva N.X. İnvestitsiya: darslik. – Toşkent: İqtisod-moliya, 2020. – 480 b.

7. Xaşimov A.A., Madjidov Ş.A., Muminova N.M. İnvestitsiyalarni taşkil etiş va moliyalaştiriş: öquv qöllanma. – Toşkent: Sharq, 2014. – 248 b.

8. Şodiyev T.Ş. Ekonometrika: darslik. – Toşkent: Özbekiston, 2007. – 280 b.

9. Özbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi ÖRQ-598-son "İnvestitsiyalar va investitsiya faoliyati töğrisida"gi Qonuni (amaldagi tahrir). – URL: https://lex.uz/uz/docs/-4664142

10. Vaxabov A.V., Xajiyev B.D. İnvestitsiyalar va investitsion loyihalarni moliyalaştiriş: darslik. – Toşkent: Moliya, 2018. – 340 b.

11. Sharpe W.F., Alexander G.J., Bailey J.V. Investments. – 6th ed. – Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 1999. – 962 p.

12. Ğozibekov D.G. İnvestitsiyalarni moliyalaştiriş muammolari: monografiya. – Toşkent: Moliya, 2003. – 224 b.

13. Mustafakulov Ş.İ. İnvestitsion muhit jozibadorligi: monografiya. – Toşkent: Baktria press, 2017. – 320 b.

14. Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasi. Özbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar: 2025-yil yanvar–dekabr böyiça press-reliz. – Toşkent, 2026a. – URL: https://stat.uz/img/press-relizlar/invest-uzb_p62788.pdf

15. Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasi. 2026-yil yanvar–sentyabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (statistik axborot). – Toşkent, 2026b. – URL: https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/70884-zbekistonda-investitsiyalar-azhmi-584-2-trln-s-mga-etdi-3